

BUGUNGI KUNDA TA'LIM TIZIMI, VA O'QUVCHI YOSHLARNING RIVOJIDA PSIXOLOGNING O'RNI VA AHAMIYATI

Alimova Mohidil Zafar qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: PhD, **Umarova Navbahor Shokirovna**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi kunda ta'lismi tizimidagi maktab, maktabgacha ta'lismi va oliy ta'lismi muassasalarida tahsil olayotgan talaba hamda o'quvchi yoshlarning ta'lismi olishlarida, kasbiy faoliyatlarida, yetuk kadr bo'lishlarida psixologiya fani va psixologning o'rni ahamiyati haqida tushuncha beradi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lismi, shiddatli zamon, ta'lismi tarbiya, pedagogic-psixologik, tilshunoslik, zamonaviy inovatsiyalar.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan bir zamon, inson omili uning mukammaligi, o'z ustida ishlashi qayg'urishi va muommolarini har qachongidan ham dolzarb masalaga aylantirdi Psixologiya fanini o'rganish orqali psixik taraqqiyotning narmal borayotganini chuqurroq bilish, insonlarning shaxsiy va narmal hayotidagi dolzarb burilish sabablarini aniqlash imkonini beradi. Bugungi kunda ta'lismi-tarbiya berishga yo'naltirilgan maxsus fanlar ham psixologiya fani negizida ish koradi.

Respublikamiz uchun nisbatan yangi soha bo'lmish, psixologiya fanining rivojlanishi jamiyatdagi barcha shaxslarning ongli psixologik darajasini yuqori ko'tarish ga xizmat qiladi. Maktab, maktabgacha ta'lismi va oliy ta'lismi muassasalarida o'quvchi talabalarni kasb-hunarga yo'naltirish, ijtimoiy, iqtisodiy pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratish bilan izohlanib kelmoqda. O'quvchilarni u yoki bu

kasbga yo‘nalganligini faqat 11-sinfda, bitirish jarayonida emas, balki kasbiy tanlov bolalikdan bolalar bog‘chasidan boshlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchilarning qobilyatini aniqlash, imkoniyati aqliy darajasini kuzatish, ularga maslahat va ko‘mak berishda psixologikning yordami va o‘rni kattadir.

Psixolog o‘quvchi talaba bilan balki ularning ota - onalari bilan ham aloqa qilib turishi ularga o‘z farzandlarining layoqati va bu layoqatning yo‘nalganligi tog‘risida ma’lumot berib turishi zarur. Bolaning to‘g‘ri tarbiya topishida, qobilyati is’tedodlari ni yuzaga chiqishida oilaning balki ota-onaning ham o‘rni beqiyos ekanligini tushuntirishi kerak bo‘ladi. Bugungi kunda zamonaviy psixologiya, ta’lim tizimi boshqa fanlar bilan ham ilmiy bilim tarmoqlari bilan faol o‘zaro bog‘liqlikka ega. Jumladan, pedagogika defektalogiya, tilshunoslik, huquqshunoslik xattoki tibbiyot bilan ham uzviy bog‘liq, ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Demak bundan xulosaki har qanday soha va fan bugungi kunda yetuk psixologikni talab etadi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida psixolog ish yuritishida ko‘plab innovatsiyalar va tashkiliy ishlar, qiziqarli metodikalar o‘tkazishi talab etiladi. Jumladan, Y.L. Moreno tomonidan fanga kiritilgan "Sotsiometriya" metodi- ni qo‘llash mumkin. Nega aynan bu metod chunki bu metod birinchidan, afzaligi jamoa bo‘lib ishlashda, jamoadagi iqlimni, jamoadagi norasmiy lidrni va guruh ichidagi guruhchalarini, guruhdan ajralib qolgan o‘quvchilarni aniqlashga yordam beradi. O‘quvchilarning ahil-inoq bo‘lishini ham ta’minlab beradi. O‘quvchilar kelishib 3 yoki 5 tagacha bo‘lgan savollarga javob berishadi. Psixolog mustaqil tarzda sinaluvchi tomonidan test ma’lumotlarining motivatsion buzilishlar darajasini aniqlay olishi, ishonchsiz pratokollarni saralay bilishi lozim.

Ummuman olganda barcha ta’lim tizimida o‘qitilayotgan ijtimoiy shu jumladan psixologiya fani o‘zida oliyanob fazilatlarni mujassamlashtirgan yetuk kadrni, iymon e’tiqodli insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Bunday mashaqqatli yo‘lda psixolog esa insonlarning tafakkur qilish, faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o‘zgalar fikrini anglashi, jamiyatdagi boshqa a’zolar bilan erkin

muloqotda bo‘la olishi, o‘z fikrlari va orzu maqsadlarini og‘zaki va yozma ravon bayon qila olishida psixologning o‘rni beqiyosdir.

Umuman, bugungi kunda xalq orasida psixologlar haqida turli xil mulohazalar uchramoqda. Biz ularning ba’zilarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

1. Psixologiya - bu insonning psixik jarayonlari kechishini biladigan fandir, psixologlar insonning ichki ruhiy holatini yaxshi biladi.

2. Psixolog- bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan mu- taxassis hisoblanadi.

3. Psixolog- bu insonlarning xatti-harakati, hissiyotlari, boshqalarning fikrini boshqara oladigan va shunga maxsus o‘rgatilgan insondir. U shunga xos bo‘lgan texnikalardan foydalana oladi, masalan gipnoz yo‘li bilan.

4. Psixolog - bu o‘zini yaxshi tushuna oladigan va qanday vaziyatda ham o‘zini boshqara oladigan inson.

5. Psixolog- bu hayot haqidagi ko‘proq tasavvurlarga ega bo‘lgan donishmanddir, uning vazifasi

qiynalgan insonlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, hayotda o‘z yo‘lini yo‘qotganlarga tog‘ri maslahatlar berishi bilan alohida ajralib turadi.

Psixolog - bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan inson hisoblanadi.

Demak psixologning amaliy mahorati uning bilimlari texnikasi va inson muomalasining psixoterapevtik texnalogiyasini yaxshi bilishida deb hisoblasak adashmagan bo‘lamiz.Hammaga ma’lumki, ko‘pgina insonlar o‘zlarini yaxshi psixolog deb hisoblashadi, ularning bu fikrga kelganliklariga sabab ular insonlar bilan muloqot qilishadi, boshqalarga hamdard bo‘la olishadi.Hayotiy psixologiya insonlarning hayotida kerak bo‘lgan sohalardan biri hisoblanadi, hattoki haqiqiy psixologlar ham bir necha bor hayotiy psixologiyaga murajaat qilishadi. D.I.Feldshteyn tadqiqotlarida psixologning vazifasi xizmati jarayonini qaror toptirilishi lozim bo‘lgan shaxs taraqqiyotining bosh maqsadi; Insonning o‘z-o‘zini,

o‘z qobilyatlarini va imkoniyatlarini mumkin qadar ocha olishi va undan unumli foydalana olishidir. Insomning o‘z o‘zini ochishi esa, uning ongli tarzda jamiyat ideallariga mos barcha layoqatlari va imkoniyatlarini rivojlantirishdan to‘la-to‘kis foydalanish uchun ko‘rsatilgan aktiv faoliyat ekanligi uqtirildi.

Bugungi kunda ko‘pchillik umumiyl o‘rta ta’lim maktablari o‘zining psixologlariga ega. Biroq shunga qaramay direktor va o‘qituvchilar ko‘pincha psixologning qo‘lidan nima kelishi mumkinligini yaxshi tasavvur etolmaydilar. Ularga psixolog hamma muammolarini bir zumda hal qilib beradigandek tuyuladi. Ammo psixologning maktabda ish boshlaganidan keyin maktabda tashqi jihatdan hech narsa o‘zgarmaganini ko‘rishgach, ularda "Maktab psixologining o‘zi nima keragi bor?" degan tipdagи savollar tug‘iladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, maktabdagi amaliy ish uchun psixolog o‘rgangan nazariy bilimlar yetmay qoladi. Maktabga kelib qolgach, psixologlar ko‘pincha amaliyotning ular oldiga qo‘ygan muommolaridan domdirab qoladilar. Shunday ahvolga tushib qolmasligi uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganlini aniqlashtirib olishi kerak. Psixolog maktabda yengib o‘tishi kerak bo‘lgan birinchi to‘siq - bu maktabning pedagogik jamoasiga qo‘sila olishidir. Bordi-yu psixolog bu murakkab organizmga qo‘silib keta olmasa, o‘z ishida muvaffaqiyatga erishishi dargumondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Psixologiya nazariyasi va tarixi (Matn) Darslik / Baratov Sh.R., Olimov L.Y., Avedon O.R.- Toshkent: "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2019.504 b .